


JIZZAX VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2020- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-noyabr oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-noyabr oylarida, birlikda)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar




(1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda)



Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **36,5** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **23,5 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



138

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

3 237

Ishlab chiqarish sanoati

14

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

38

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 3 427 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,5 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 124,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 94,5 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 108,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 4,0 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 155,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) o'sishidir va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 5,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,1 %) kamayishi kuzatildi.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,6** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




12,6 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




17,3 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




40,0 foizga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan o'sish kuzatilmadi



Xususiy korxonalar




0,2 foizga kamaydi




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 1 383 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 612 taga yoki 179,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 308 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 579 taga yoki 179,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar- noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 612 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 364 taga yoki 2,5 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 11 585 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 541 taga yoki 128,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 11 183 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 465 taga yoki 128,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar- noyabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 599 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 231 taga yoki 109,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.





Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra 201 tani tashkil etib, ulardan 192 tasi yoki 95,5 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 15 taga yoki 108,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida Jizzax viloyatida 18 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



94

yashash bo'yicha xizmatlar



1 164

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 258 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,5 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 115,1 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,5 %), yashash bo'yicha xizmatlarning - 106,8 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,5 %) o'sishidir.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

13




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	73	80	119	182	192
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3	6	17	29	27
Sanoat	56	62	69	104	110
Qurilish	2	2	4	8	8
Savdo	7	4	18	21	28
Tashish va saqlash	2	3	3	5	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	-	1	5	4
Axborot va aloqa	1	1	2	3	3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-	1
Boshqa turlar	2	2	5	7	7

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni


(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Jizzax viloyati	192	123	69
Jizzax shahri	66	46	20
tumanlar:			
Arnasoy	6	4	2
Baxmal	8	5	3
G'allaorol	18	12	6
Sharof Rashidov	17	9	8
Do'stlik	3	2	1
Zomin	15	8	7
Zarbdor	3	2	1
Zafarobod	8	2	6
Mirzacho'l	3	1	2
Paxtakor	9	8	1
Forish	25	19	6
Yangiobod	11	5	6

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Jizzax shahrida 66 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 34,4 %), Forish tumanida 25 ta (13,0 %), G'allaorol tumanida 18 ta (9,4 %), Sharof Rashidov tumanida 17 ta (8,9 %), Zomin tumanida 15 ta (7,8 %), Yangiobod tumanida 11 ta (5,5 %) hamda Paxtakor tumanlarida 9 ta (4,7 %) ni tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Jizzax shahri (29,1 %), Sharof Rashidov (15,6 %), G'allaorol (8,2 %), Zomin (8,0 %), Forish (6,9 %), Baxmal (6,0 %), Zarbdor (4,8 %), Paxtakor (4,4 %), Do'stlik (4,3 %), Mirzacho'l (3,7 %), Arnasoy (3,4 %), Zafarobod (3,1 %) va Yangiobod (2,5 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda)


2020- yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Jizzax shahrida (21,9 %), Sharof Rashidov (11,3 %), G'allaorol (10,3 %), Baxmal (8,0 %), Forish (7,3 %), Zomin (7,1 %), Zarbdor (6,4 %), Do'stlik (5,9 %), Paxtakor (5,6 %), Arnasoy (4,9 %), Zafarobod (4,4 %), Mirzacho'l (4,0 %) va Yangiobod (2,9 %) tumanlari ulushiga ega.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

17




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Jizzax shahrida (35,9 %), Sharof Rashidov (20,0 %), Zomin (6,5 %), Baxmal (5,9 %), G'allaorol (5,6 %), Forish (4,7 %) Zarbdor (4,5 %), Do'stlik (4,4 %), Arnasoy (3,3 %), Mirzacho'l (3,0 %), Paxtakor (2,9 %), Zafarobod (1,8 %) va Yangiobod (1,5 %) tumanlari hissasiga tegishli.


Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi (2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni



(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Jizzax shahrida (30,9 %), Paxtakor (15,5 %), G'allaorol (10,8 %), Zarbdor (7,8 %), Sharof Rashidov (6,9 %), Mirzacho'l (5,7 %), Zafarobod (5,6 %), Zomin (5,4 %), Do'stlik (4,9 %), Baxmal (2,5 %), Yangiobod (1,9 %), Arnasoy (1,6 %), va Forish (0,5 %) tumanlari ulushni qayd etadi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz va Jizzax viloyati statistika boshqarmasining www.jizzaxstat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 72 221-51-24